

**TERMIZ SHAHRIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
JAMOAT TRANSPORTI XIZMATINI MODERNIZATSIYA QILISH:
TELEGRAM BOT YORDAMIDA AXBOROT BERISH TIZIMI**

Termiz davlat muhandislik va
agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

Choriyev Bekzod Urazovich

e-mail: bekzodchoriyev0097@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu tezisda Termiz shahrida jamoat transporti tizimining mavjud muammolari tahlil qilinadi hamda raqamli texnologiyalar yordamida ularni hal etish yo‘llari taklif etiladi. Xususan, jamoat transportidan foydalanishni osonlashtirish va axborotga ochiqlikni ta’minalash maqsadida Telegram platformasida interaktiv bot ishlab chiqish g‘oyasi ilgari surilgan. Bot foydalanuvchining joriy joylashuvini va borishni istagan manzilini hisobga olib, tegishli avtobus yo‘nalishini ko‘rsatadi. Bu yondashuv nafaqat mahalliy aholi, balki sayyoohlar uchun ham jamoat transportidan foydalanishni qulaylashtiradi. Ushbu texnologik yechim Termiz shahrining transport tizimini raqamlashtirish, qatnov grafigi haqidagi axborotni ommalashtirish va infratuzilmani optimallashtirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Kalit so‘zlar: jamoat transporti, axborot texnologiyalari, Telegram bot, yo‘lovchi oqimi, transport logistikasi, shahar muhit.

KIRISH So‘nggi yillarda Termiz shahri ham infratuzilma, ham turizm yo‘nalishida rivojlanmoqda. Aholi sonining ko‘payishi, shaharga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy mehmonlar sonining ortishi jamoat transporti xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Biroq, amaldagi jamoat transporti tizimi ushbu ehtiyojga to‘liq javob bermaydi: qatnov grafigining mavjud emasligi, bekatlarning yetarli darajada jihozlanmaganligi va yo‘nalishlar haqida axborotning kamligi asosiy muammolar sirasiga kiradi[1].

TADQIQOT MUAMMOSI Jamoat transporti foydalanuvchilar, ayniqsa Termiz shahrini yaxshi bilmaydigan sayyoohlar yoki yangi ko‘chib kelgan fuqarolar

manzilga qanday yetib olishni bilmaydilar. Taxi xizmatlari esa ularning barchasiga ham maqbul emas. Shu sababli, raqamli texnologiyalar yordamida bu muammoni hal qilish dolzarb vazifa hisoblanadi[2].

TADQIQOT MAQSADI Termiz shahri uchun Telegram messenjeri platformasida ishlovchi foydalanuvchilar uchun qulay, interaktiv va bepul axborot botini ishlab chiqish. Ushbu bot foydalanuvchidan manzil va borilmoqchi bo‘lgan joyni qabul qilib, unga eng mos jamoat transporti yo‘nalishini, bekat nomlarini, vaqtini va taxminiy yo‘l davomiyligini ko‘rsatib beradi[3].

ILMIY YANGILIGI

- Raqamli vositalar asosida jamoat transportiga oid axborotni avtomatlashtirilgan tarzda yetkazish tizimi birinchi marotaba Termiz shahri misolida taklif etilmoqda;
- Telegram messenjeri asosida lokal transport navigatsiyasini taklif etuvchi model yaratiladi;
- Qatnov grafigini bekatlarda aks ettirish o‘rniga xarajatlarni kamaytiradigan va real vaqtda javob qaytaradigan axborot tizimi ishlab chiqiladi.

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

- ✓ Jamoat transporti foydalanuvchilari sonining oshishi;
- ✓ Axborot yetishmovchiligidan kelib chiqadigan noqulayliklarning kamayishi;
- ✓ Mahalliy va xorijiy sayyoohlar uchun qulaylik yaratilishi;
- ✓ Shaharda jamoat transporti yuklamasining muvozanatli taqsimlanishi;
- ✓ O‘rganilgan tajriba asosida boshqa kichik shaharlar uchun ham analog tizimni joriy etish imkoniyati[4].

XULOSA Zamonaviy texnologiyalar shahar transport tizimini modernizatsiya qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Taklif etilayotgan Telegram bot modeli Termiz shahrida axborot asosida jamoat transporti xizmatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat transport tizimi samaradorligini, balki aholining kundalik hayot sifati va mehmonlar uchun qulaylikni oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sheraliyevich, Primkulov Bekzod, Qurbanazarov Shavkat Abduraximovich, and Choriyev Bekzod Urazovich. "TERMIZ SHAHRIDA MAVJUD BO'LGAN JAMOAT TRANSPORTI YO'NALISHLARININING QAMROV KENGLIGINI OSHIRISH: Termiz davlat universiteti “Transport tizimlari va inshootlari” kafedrasи, DSc, dotsent, Qo'ziyev Abdimurot O'roqovich taqrizi ostida." IQRO INDEXING 9.1 (2024): 90-95.
2. Sheraliyevich Primkulov Bekzod, and Choriyev Bekzod Urazovich. "Shahar Aholisini Jamoat Transportida Tashishda Harakat Muntazamligini Oshirish Yo'llari (Termiz Shahar 15-Yo'nalishli Avtobus Misolida)." Open Academia: Journal of Scholarly Research 2.2 (2024): 35-38.
3. Abduraximovich, Qurbanazarov Shavkat, Choriyev Bekzod Urazovich, and Sharifova Nargiza Djurayevna. "TERMIZ SHAHRIDA MAVJUD BO'LGAN AVTOBUS BEKATLARINING TAHLILI." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 4.2 (2024): 13-18.
4. Urazovich C. B., Eshboyevich A. A., Djurayevna S. N. THE ROLE OF PUBLIC TRANSPORT IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF CITIES (ON THE EXAMPLE OF REGIONS) //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2025. – Т. 5. – №. 6. – С. 58-62.